

Maqsad yo'lidagi majburiyat

Grafik dasturlardan foydalana olish katta tajriba va malakani talab etadi. Barcha jarayonlar kompyuter olamiga ko'chganligi sabab.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti boshlang'ich tashkiloti qoshida talabalarga grafik dasturlar bo'yicha ilk saboqlarni berish yo'lga qoyilgani quvonarlidir.

Xuddi shu maqsadda O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolari Sh.Hamidullayev va F.Xamdamova rahbarligida tashkil etilgan "Grafik dasturlar" to'garagi tomonidan CoreIDRAW dasturida ishlash bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Musobaqada to'garakning faol a'zolari yakka va jamoa bo'lib ishtirok etishdi. Musobaqa shartiga ko'ra, tashkilotlarning ramzlarini CoreIDRAW dasturi yordamida chizish hamda kreativ yondashgan holda, o'z g'oyalari asosan bezash vazifasi berildi.

Musobaqani "YF va YK" fakulteti yoshlar yetakchisi Sh.Abduqodirov, institutimiz magistranti S.Xolova va "G va GI" kafedrasida assistenti A.Inamov kuzatib borishdi hamda jarayonini muqobil tarzda baholashdi. Musobaqa yakuniy natijalariga ko'ra, o'rinlarni quyidagicha egallashdi:

1-o'rinni Kuchimboyev Sarvar GM fakulteti 1-kurs talabasi

2-o'rinni Norboyeva Dilshoda YF va YK fakulteti 2 - kurs talabasi

3-o'rinni Qambarov Baxtiyor YF va YK fakulteti 2 - kurs talabasi

Musobaqaning taqdirlash marosimida institutimiz Ilmiy ishlar bo'yicha prorektori T. Sultonov ishtirok etdilar hamda g'oliblarni diplom va estalik sovg'alari bilan taqdirladilar. Musobaqa davomida faol ishtirok etgan talabalar ham faxriy yorliq hamda estalik sovg'alari bilan taqdirlandi. To'garaklar faoliyati davom etadi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi talaba-yoshlarning huquqiy manfaatlarini himoya qiladi. Talaba yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirishga ko'maklashadi. Musobaqani tashkil etishda yaqindan yordam bergan institut Ilmiy ishlar bo'yicha prorektori T. Sultonovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.



YI institut boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Akmal Berdimurodov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.